



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



“BOBURNOMA”DA MULOQOT MADANIYATINING IJTIMOIIY- FALSAFIY ASOSLARI HAMDA TARIXIY-SOTSIOLOGIK TALQINI

“BABURNAMA” CONTAINS SOCIAL-PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS AND HISTORICAL-SOCIOLOGICAL INTERPRETATION OF THE CULTURE OF COMMUNICATION

Normatov Sanjar Abdug‘ani o‘g‘li

Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

E-mail: sanjarnormatov2991@gmail.com

ORCID:0000-0002-1927-2669

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./RJXL2149](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./RJXL2149)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari muloqot madaniyatining ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va diniy-axloqiy asoslarini yorituvchi muhim tarixiy manba sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda asarda aks etgan so‘zlashuv odobi, diplomatik aloqalar, axloqiy qadriyatlar, oilaviy va ijtimoiy munosabatlarning umumiy nazariy asoslari o‘rganilgan. Shuningdek, Bobur ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, siyosiy boshqaruvni mustahkamlash va insonlar o‘rtasida ishonch muhitini shakllantirishdagi muloqot madaniyatining ro‘li ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.*

Kalit so‘zlar: *muloqot madaniyati, odob, axloqiy qadriyatlar, diniy qadriyatlar, ijtimoiy barqarorlik, oila, bag‘rikenglik, kengash, shaxslararo muloqot, kommunikatsiya.*

Annotation. *This article analyzes Zahiriddin Muhammad Babur’s work “Baburnama” as an important historical source that reveals the socio-philosophical, political, and religious-ethical foundations of communication culture. The study examines the general theoretical bases of speech etiquette, diplomatic relations, moral values, and family as well as social relations reflected in the work. It also scientifically explores Babur’s views on the role of communication culture in ensuring social stability, strengthening political governance, and fostering an atmosphere of trust among people.*

Keywords: *communication culture, etiquette, moral values, religious values, social stability, family, tolerance, consultation, interpersonal communication, communication.*

Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yozilgan “Boburnoma” asari nafaqat Temuriylar davri tarixiy voqealarini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Ushbu asar orqali Bobur o‘zining hayotidagi hodisalarni shu bilan birga, davlat boshqaruvi, ijtimoiy munosabatlar va o‘zi uchratgan turli xalqlar turmush tarzini tasvirlab, ular o‘rtasidagi umumiy bog‘liqlik va ajratib turuvchi xususiyatlarni ochib bergan. Bu asarda islomiy axloqiy qadriyatlar bilan birga



XV-XVI asrdagi ijtimoiy munosabatlari fonida shakllangan muloqot madaniyatining o'ziga xos namunasini sifatida ko'riladi. Mazkur asarda shaxslararo munosabatlar, siyosiy diplomatiya, axloqiy qarashlar, adabiy tafakkur bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni yorituvchi muhim tarixiy-memuar va adabiy-falsafiy manba sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi globallashuv sharoitida muloqot madaniyatining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tarixiy manbalar asosida o'rganish muhimdir. Ayniqsa, “Boburnoma”da aks adolat tamoyillari hamda insonparvarlik g'oyalari ijtimoiy tizimni barqarorlashtiruvchi kommunikativ omil sifatida ko'riladi. Shu jihatdan Bobur qarashlari muloqot madaniyatining diniy-axloqiy, siyosiy va madaniy asoslarini o'rganishda muhim tarixiy-sotsiologik material bo'lib undan tashqari yana ijtimoiy-tabiiy fanlar, tarix, falsafa, diniy-axloqiy qarashlar, tilshunoslik, geografiya, tabiatshunoslik va boshqa sohalarga oid ma'lumotlarning mavjudligi “Boburnomaning” ilmiy qiymatini yanada oshiradi [Deyl S.F., 2004:154]. Asarda Boburning harbiy yurishlari, diplomatik munosabatlari, qo'shin tuzilishi va boshqaruv tizimi haqidagi tasvirlar muloqotning nafaqat axloqiy, balki siyosiy-ijtimoiy mexanizm sifatida ham amal qilganini ko'rsatadi. Shuningdek, Movarounnahr, Xuroson, Afg'oniston va Hindiston xalqlari, ularning turmush tarzi, urf-odatlar, tillari, kasb-hunari hamda ijtimoiy tabaqalari haqidagi ma'lumotlar o'sha davr ijtimoiy hayoti bilan tanishish imkonini beradi [Beverij A.S., 1922:147].

Jumladan “Boburnoma”dagi berilgan ma'lumotda shuni anglashimiz mumkinki Zaxriddin Muhammad Bobur madaniyatli shaxs sifatida insonlar bilan muloqotga kirishar ekan eng qiymatli ne'mat bo'lmish vaqtni qadrlaganini bilishimiz mumkin. U suhbat davomida murakkab, jimjimador va tushunarsiz so'zlarni qo'llashni muloqot madaniyatiga zid deb hisoblaydi. Bu borada uning Humoyun mirzoga yozgan tanbehi bunga yaqqol misol bo'la oladi: “Xatingni qiynalib o'qisa bo'ladi, lekin u juda chalkash... Bundan keyin takalluf qilma, ravshan va aniq so'zlar bilan yoz. Senga ham, o'quvchiga ham tashvish kamroq bo'ladi” [Bobur, 2008:267]. Boburning ushbu yondashuvi inson muloqot etikasi amal qilish muhimligini o'za bunga amal qilganini anglatadi. Bobur fikrlariga monand olim Graysga ham samarali muloqot qilishda o'zaro hamkorlik muhim ekanligini bildiradi. Ayniqsa Manner (uslub) maksimasi qo'llashni tavsiya qiladi. Unga ko'ra— suhbatdosh “aniq maqsadli, lo'nda gapirish kerak shu bilan birga keraksiz, noaniq va murakkabliklardan qochishi lozim [Grice, 1975:183]. Bu bevosita Bobur bildirgan fikrga bilan mos tushadi.

Undan tashqari Bobur davlat arbobi va hukmdor sifatida muloqotni nafaqat shaxslararo munosabat vositasi, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim siyosiy-axloqiy mexanizm sifatida bilgan. “Boburnoma”da uning o'g'illari Humoyun va Komron mirzolar o'rtasidagi munosabatlarga oid nasihatlar aynan shu tamoyilni yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, u shunday yozadi: “Ukang bilan yaxshi yashagin. Kattalar ko'tarimli bo'lishlari kerak, sening ham u bilan yaxshi



muomalada bo'lishga umid qilaman” [Bobur Z.M., 2008:267]. Mazkur fikr Bobur nazarida muomala madaniyati shaxsiy hissiyotlar yoki individual manfaatlardan ustun turuvchi ijtimoiy-axloqiy qadriyat ekanini ko'rsatadi. Bu yerda hukmdor oilaviy birlikni saqlash orqali davlat boshqaruvida ichki ziddiyatlarning oldini olishga intiladi. Ushbu nasihat orqali kattalarga hurmat kichiklarga izzat ko'rsatish bizning azaliy qadriyatlarimizdan ekanligini dalili sifatida ko'rsak bo'ladi. Chunki sharq axloqiy tafakkuridagi “adab” va “axloq” o'zaro bir-biri bilan bog'liq holda nomoyon bo'ladi. Zero Humoyun Mirzoga berilgan mana bu nasihatda “Senga ma'lumki, har doim bir qoidaga amal qilinardi: olti hissa senga bo'lsa, besh hissa Komronga tegardi. Hamisha ushbu qoidaga amal qilgin” deydi [Bobur Z.M., 2008:268]. Bundan ko'rishimiz mumkinki, Bobur moddiy boyliklar taqsimoti masalasini ham murosayu-madira orqali hal qilishni ma'qul deb ko'radi. Bu esa muloqotni ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiluvchi amaliy mexanizm sifatida ko'rilgan.

Jumladan Boburning betob o'g'li Humoyun uchun o'z jonini sadaqa qilish haqidagi qarori, insonning Yaratgan bilan ichki dialogi hamda farzand bilan chuqur ruhiy bog'liqligini aks ettiradi. Uning: “Mening ko'nglimga keldiki, Muhammad Humoyunning mendan boshqa yaxshiroq narsasi yo'q. Men o'zim sadaqa bo'layin, Xudo qabul qilsin” degan mazmundagi fikri [Bobur Z.M., 2008:257] ota mehrining fidoyilik darajasiga yetganini ko'rsatadi. Bu yerda muloqot faqat verbal jarayon emas, balki ma'naviy-ruhiy voqeyilik sifatida talqin qilinadi; ya'ni duo, niyat va ichki kechinmalar orqali yuzaga keladigan metafizik muloqot shakli namoyon bo'ladi. Boburning Humoyun atrofida uch marta aylanib, uning dardini o'z zimmasiga olishga tayyor ekanini bildirishi Sharq madaniyatida mavjud bo'lgan fidoyilik namunasi sifatida e'tirof etsa bo'ladi, bunda ota mehrining mehrining kuchi ekanligi farzand taqdiriga ta'sir etuvchi ruhiy omil sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga Bobur faqat ota emas balki davlat hukmdori sifatida ham faoliyat olib borish majburiyatiga ega edi.

Shu bois u davlat boshqaruvida kengash orqali qaror qabul qilishni muhim deb bilgan bu haqda o'g'liga quyidagi cha o'g'it bergan: “O'y-fikrli va tadbirli beklar bilan kengashib, ularning so'zlariga amal qil... xilvatda o'tirishni bas qil, odamlardan uzoqlashishni unut” [Bobur Z.M., 2008:268]. Mazkur fikr Bobur dunyoqarashida muloqot madaniyati davlat boshqaruvi barqarorligini ta'minlovchi strategik omil sifatida qaralganini ko'rsatadi. U hukmdorni jamiyatdan ajralib qolmaslikka, undaydi, bu esa siyosiy legitimlikni mustahkamlovchi ijtimoiy aloqa shakli sifatida talqin etiladi. Shuningdek, u muhim masalalar yuzasidan qaror qabul qilish jarayonini shunday ifodalaydi: “Necha kundin so'ng kengashib, so'zni munga qaror berildikim.” [Bobur Z.M., 1960:128]. Bundan anglashiladiki Bobur ko'pincha muhim qarorlarni o'zi emas balki muhokama, tortishuv va bahs munozara orqali muhim qarorlarni qabul qilgan. U atrofidagi insonlar fikrini hurmat qilgan, ulardan o'ziga xulosa chiqargan muhim voqeyilik oldidan barchani inobatga olib hukm



chiqargan. Sotsiologik nuqtayi nazardan, mazkur holat kollegial (demokratik) muloqot modelini o'zida ifodalaydi. Unda hokimiyat bir shaxs irodasiga to'liq bog'lanib qolmay, ijtimoiy guruhlar — amirlar, beklar va yaqin maslahatchilar — o'rtasidagi kommunikativ hamkorlik orqali amalga oshiriladi. Shu bois “Boburnoma”da maslahat va kengash muloqot madaniyatining nafaqat tashkiliy, balki ijtimoiy-falsafiy poydevori sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, Samarqandni qo'lga kiritish masalasi yuzasidan o'z yaqin bek va maslahatchilari bilan olib borgan suhbatlari hukmdor va uning atrofidagi ijtimoiy guruh o'rtasida ochiq munosabatlar mavjud ekanligini ko'rsatadi. Bobur bu jarayonni shunday ifodalaydi: “Har tarafdin so'z o'tar edi. Dedimkim: «Keling, aytingkim, tengri rost keltursa, Samarqandni qachon olg'aybiz?»” [Bobur Z.M., 1960:139]. Mazkur iboradagi “Har tarafdin so'z o'tar edi” degan ifoda majlis muhitida erkin fikr bildirish imkoniyati mavjud bo'lganini, ya'ni muloqot diktatura yoki qat'iy buyruq asosida emas, balki o'zaro muhokama va maslahatlashuv orqali kechganini tushunishimiz mumkin. Xususan qor qalin yog'ib, yo'llar yo'qolgan xavfli bir vaziyatda Boburning navkarlari bilan maslahatlashib qaror qabul qilishi lozim bo'ladi. U bu haqda shunday yozadi: “Kobulga qaysi yo'l bilan borishimizni kengashdik. Men va aksar odamlar shunday mulohazada edikki... Qandahor yo'li... betashvish borilardi. Qosimbek mana shu yo'l bilan boramiz deb turib oldi” [Bobur Z.M., 2008:148]. Ushbu epizoddan ko'rinadiki, Bobur qaror qabul qilish jarayonida faqat shaxsiy hokimiyatga tayanmaganini ko'rsatadi. Shu jihatdan Bobur qarashlari sharq siyosiy tafakkurida keng tarqalgan maslahat (shuro) tamoyili bilan uyg'unlashib, muloqot madaniyatining institutsional ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. U hukmdor sifatida yakka qarorga tayanishdan ko'ra, jamoaviy fikr almashish va kelishuvga asoslangan boshqaruv uslubini afzal ko'rganini asarda yozilgan shu kabi ko'plab voqealar orqali anglashingiz mumkin. Bu esa muloqot madaniyatini davlat boshqaruvi, siyosiy muhit hamda ijtimoiy munosabatlar barqarorligini ta'minlovchi jarayon ekanligini tushunishimiz mumkin.

Mazkur yondashuv Boburning shaxsiy hayotiy tamoyillarida ham izchil namoyon bo'ladi. Jumladan, “Boburnoma”da uning bayram, tomosha va bazmlarda ishtirok etgani qayd etilgan bo'lsa-da, u shaxsiy axloqiy prinsiplariga qat'iy amal qilganini ko'rish mumkin. Masalan, Hirot mirzolari davrasidagi majlislar tasvirida Bobur: “Ichmasimni chun bilurlar edi, taklif qilmadilar. Muzaffar mirzoning majlisida ham bir navbat bordim... beg'ilu g'ash oromida majlis edi” deb yozadi [Bobur Z.M., 1960:251]. Ushbu parcha Boburning ijtimoiy muloqot jarayonlarida faol qatnashgan holda ham shaxsiy axloqiy mezonlariga sodiq qolganini ko'rsatadi.

Xususan Bobur turli ijtimoiy guruhlar, hukmdorlar, ulamolar, harbiylar va oddiy fuqarolar bilan muloqotda o'sha davrning qat'iy etiket qoidalariga rioya qiladi. Ayniqsa, u o'zidan yoshi ulug' xonlari yoki tajribali beklar bilan muloqotda “kichiklik odobi” va “tuzuk” (tartib) asosida muomalada bo'lishni



davlat barqarorligi garovi deb bilgan [Bobur, 2008:71]. Shuningdek, Bobur siyosiy faoliyatida rasmiy qabul marosimlari va diplomatik uchrashuvlar ma'lum qoida va yo'riqnomalar asosida harakat qilgan. “Boburnoma”da raqib yoki ittifoqchi sultonlarni qabul qilish jarayonlari tafsilot bilan tasvirlanib, unda hukmdor nutqi, xulqi va tashqi odobi orqali ijtimoiy-axloqiy me'yorlar ifodalanganini ko'rish mumkin. Unga ko'ra Bobur shunday yozadi: “U paytda temuriy sultonlar rasmi bilan to'shak ustida o'tirgandim. Hamza Sulton bilan Mahdiy Sulton... kelganlarida, bu sultonlarning ta'zimiga o'rnimdan turib, to'shakdan tushib, sultonlar bilan ko'rishdim. Sultonlarni o'ng qo'l tomoniga o'tirgizdim” [Bobur Z.M., 2008:49]. Ushbu epizod tasvirlangan “to'shak” sodda qilib aytganda taxtni anglatadi va siyosiy maqomining timsoli sifatida ko'riladi. Boburning ushbu joydan tushib mehmon sultonlarni kutib olishi esa muloqotda kamtarlik, hurmat va diplomatik muvozanatni saqlashga harakat qilgan. Bu orqali u o'z hokimiyatini inkor qilmaydi, aksincha uni axloqiy jihatdan legitimlashtiradi, ya'ni kuch va hurmat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi. Falsafiy jihatdan bunday muloqot modeli Sharq siyosiy tafakkuridagi tavoze, ya'ni kibrdan yiroq bo'lish va insoniy hurmatni muhimligini bildiradi. Diplomantik muloqotda bunday yondashuv qarama-qarshiliklarni yumshatish, o'zaro ishonchni mustahkamlash hamda siyosiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ayni shu holatda Boburning Badiuzzamon mirzo bilan uchrashuvi tasviri diqqatga sazovor. U “Boburnoma”da muloqot madaniyatining ijtimoiy maqom va “to'ru” (tartib, rasm-rusum) bilan uzviy bog'liqligini yaqqol namoyon etadi. U mazkur vaziyatda shunday deydi: “Muhammad Burunduqbekka va Zunnunbekka ayturdimkim, agarchi yoshim kichiyuur, vale to'rum ulug'dur, ota taxtidakim, Samarqand bo'lg'ay, ikki navbat zarbi rost olib o'lturubdurmen...” [Bobur Z.M., 2008:251]. Ushbu iqtibos Bobur dunyoqarashida muloqot shaxsiy munosabatlar doirasidan chiqib, institutsional-huquqiy mazmun kasb etishini ko'rsatadi. Ya'ni, hurmat (ta'zim) Boburning shaxsiga emas, balki u vakillik qilayotgan taxt, davlat va siyosiy tartibga nisbatan talab etiladi. Bu davrda “to'ru” tushunchasi ijtimoiy iyerarxiyani tartibga soluvchi me'yoriy tizim bo'lib, muloqotdagi har bir imo-ishora, o'tirish-turish, ta'zim yoki tarixiy siyosiy kuchlar muvozanatini ifodalovchi signal sifatida baholangan. Bobur “yoshim kichik”ligini tan olgan holda ham “to'rum ulug'dur” deya ta'kidlashi orqali shaxsiy biologik yosh bilan jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyning ahamiyatini bildiradi. Ammo Bobur din ulamolari va tasavvuf vakillariga nisbatan doimo hurmat ko'rsatgan. Ular bilan bo'lgan suhbatlarda yoki uchrashuvlarda qattiq axloqiy me'yorlarga amal qilgan holda ularga nisbatan hurmat bajo keltirgan. Xususan, uning tushida Xoja Ubaydulloh Ahror bilan muloqot qilishi tasvirlangan epizoddan bu narsani tushunishimiz mumkin. Bobur bu holatni quyidagicha bayon etadi: “Xojaning olig'a g'olibo betakallufroq dastorxon solmishlar... Men ham imo bila dedimkim, mendin emastur. Dastorxon solg'uchi taqsir qilibtur. Xoja fahm qilib, bu uzr masmu' tushti” [Bobur Z.M., 1960:139]. Mazkur holatdagi “takalluf” ko'rsatish



— rasmiy hurmat, odob va axloqiy qoidalar asosida din vakillariga nisbatan insonlarning umumiy munosabatini o'zida aks ettiradi.

E'tiqod masalasining ustuvor ekanligini otasiga bergan tarifda va tavsifda diniy e'tiqod, tasavvufiy bilan bog'liqlik holda quyidagicha fikr bildiradi. “Fel-atvori: hanafiy mazhabida, pokiza e'tiqodli kishi edi... Hazrat Xoja Ubaydullohga murid edi. Suhbatlariga ko'p musharraf bo'lgan” [Bobur Z.M., 2008:9]. Ushbu parcha shaxs muloqot madaniyati shakllanishida diniy-ma'naviy omillar, xususan tasavvuf an'analari muhim o'rin tutganini ko'rsatadi. Bu yerda muloqot pir va murid o'rtasidagi ruhiy-axloqiy bog'liqlik shakli sifatida talqin etiladi. Bunday munosabatda hurmat, kamtarlik, qalb pokligi va intizom ustuvor ahamiyat kasb etadi. Tasavvufiy muloqot an'alarida ustoz bilan suhbat insonning axloqiy kamolotini ta'minlovchi muhim vosita hisoblanadi. Bobur keltirgan mazkur tavsif ham shu jarayonning muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

“Boburnoma”da ayrim tarixiy shaxslar faoliyatini baholash jarayonida u nafaqat ularning siyosiy kuchi yoki harbiy salohiyatini, balki muloqot uslubi, muomala odobi va boshqaruvdagi adolat tamoyillariga munosabatini ham asosiy mezon sifatida ko'rsatadi. Xususan, Xisravshoh faoliyatiga bergan bahosida Bobur shunday yozadi: “ Xisravshoh bu o'tar bebaqo dunyo uchun... shuncha yomonlik va badnomlikni ixtiyor qilib hamda muncha zulm va adolatsizlik qilmoqni o'ziga shior qilib” [Bobur Z.M., 2008:49]. Unga ko'ra, boshqaruvning zulm va adolatsizlikka asoslanganligi ichki munosabatlarning buzilishiga sabab bo'lishini ko'rsatadi va shaxsning obro'sizlanishiga va xalq orasida badnom bo'lishiga olib kelishini anglatadi. Shundan ham bilish mumkinki Bobur suhbatdoshning insoniy sifatlarini ham e'tibor qaratib shunga yarasha muomala qilgan. Xususan, Qanbar Ali haqida u shunday yozadi: “Ajab yengil va bemoska mardak edi” [Bobur Z.M., 2008:37]. Yuqoridagi gapdan shaxsning individual psixologik xususiyatlari tavsiflangan. Unga ko'ra “Moska” (salobat, og'irlik, barqarorlik) tushunchasi, Bobur qarashlarida muloqot madaniyatining muhim mezoni sifatida namoyon bo'ladi. U suhbatdoshning vazminligi, fikrda qat'iyliigi va muomala barqarorligini bildiradi. Aksincha, “yengil” xarakterli shaxs bilan muloqot murakkablashadi, chunki bunday shaxs hissiyotga beriluvchan, izchil bo'lmagan yoki mantiqsiz talablarga moyil bo'lishi mumkin. Falsafiy jihatdan bu yondashuv shaxsning ichki axloqiy va ruhiy kamoloti muloqot madaniyatining muhim sharti ekanini ko'rsatadi. Shu tariqa, Bobur muloqot madaniyatini ijtimoiy maqom va axloqiy qadriyatlar bilan bir qatorda shaxsiy psixologik barqarorlik bilan ham bog'lab, kommunikativ jarayonning kompleks — ijtimoiy, falsafiy va psixologik — tabiatini yoritadi.

U ayrim mirzolar faoliyatini tahlil qilar ekan, ularning suhbatdagi muloyimligi va odobini e'tirof etish bilan birga, harbiy va siyosiy faoliyatdagi sustligini tanqid qiladi. Bu holat quyidagi jumlada o'z ifodasini topgan: “Bu mirzolar agarchi suhbat va suhbatorliqda va ixtilot va omizishta tavre edilar, vale sipohilik rev va rangidin yiroh va mardonalik jadal va jangidin yiroh edilar”



[Bobur Z.M., 2008:251]. Mazkur fikr Bobur dunyoqarashida muloqot madaniyati tashqi nazokat yoki shirinso'zlik bilan emas, balki amaliy jasorat, mas'uliyat va faoliyat bilan uyg'unlashgandagina haqiqiy ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Bu jihat qadimiy falsafiy ta'limotlarda ham bu narsa e'tibor qaratganini anglashimiz mumkin. Xususan Yunon faylasufi Aristotel inson fazilatlari haqida so'z yuritar ekan, axloqiy barkamollik faqat fikr emas, balki amaliy faoliyat orqali isbotlanishi lozimligini uqtiradi [Aristotle, 2004:112]. Undan tashqari diniy-axloqiy ta'limotlarda ham so'z va amal birligi muhim axloqiy prinsip sifatida qaraladi. Islom ta'limotida insonning so'zi va amali uyg'un bo'lishi halollik, rostgo'ylik va ishonchlilik belgisi sifatida talqin qilinadi. Bu qadriyatlar muloqot madaniyatining ma'naviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa Qur'oni Karimda so'z va amal o'rtasidagi uyg'unlik inson kamolotining muhim mezoni sifatida ko'rsatiladi. Aynan shu uyg'unlik jamiyatda ishonch muhitini mustahkamlash, shaxslararo munosabatlarni barqarorlashtirish hamda ma'naviy qadriyatlarning uzviy davomiyligini ta'minlovchi muhim omildir.

U so'z va amal birligini qo'shini ichida ham ko'rishni istaydi. Shu bilan birga qiyin vaziyatlarda askarlarini ruhlantirish uchun so'z vositasidan mohirona foydalangan. Xususan Hindiston yurishi oldidan o'z lashkarlari o'rtasida tushkunlik paydo bo'lganda, muloqotning “ishontirish” va “etik ta'sir” metodidan unumli foydalanadi. Uning o'lim va shon-sharaf mavzusidagi nutqi nafaqat lisoniy, balki kuchli mafkuraviy qurol ekanligini isbotlaydi: “Jangga bog'langan bo'lsang, boshingga kelgan har narsaga rozi bo'l... Hech bir band podshohlik bandicha bo'lmas” [Bobur, 2008:267]. Mazkur nutqdan ko'rinadiki, Bobur harbiy-siyosiy vaziyatlarda armiyasini kerakli vositalardan foydalanib ularning ruhiyatini ko'tara olgan. Bu barcha davrlar uchun kerak bo'lgan umumiy mezon hisoblanib. Xususan, nemis faylasufi Yurgen Habermas kommunikativ harakat nazariyasida bu masalaga e'tibor qaratdi va shunday fikrni ilgari suradi “Nutq orqali shakllangan konsensus jamiyat barqarorligi va jamoaviy faoliyati ta'minlashning muhim omili sifatida qaraydi” [Habermas, 1984:25]. Shu nuqtai nazardan Boburning lashkarga yo'llagan murojaati ham kommunikativ birlikni mustahkamlash, qo'shin ruhiyatini bir maqsad atrofida jamlashga qaratilgan strategik nutq sifatida talqin qilinadi. Zamonaviy psixologik kommunikatsiya tadqiqotlarida ham ishontirish jarayoni inson xatti-harakatini o'zgartirish, motivatsiyani oshirish va ijtimoiy faoliyatni yo'naltirish vositasi sifatida qaraladi. masalan, Robert Kialdini ishontirish psixologiyasiga oid tadqiqotlarida insonlarga ta'sir ko'rsatishda ijtimoiy ishonch, obro', hamjihatlik hamda qat'iyat kabi omillar muhim ro'l o'ynashini asoslab beradi [Cialdini R, 2001:21]. Bu nazariy qarashlar Bobur nutqida ham aks etadi, chunki u jang oldidan askarlarda qat'iyat, sadoqat va shon-sharaf hissini uyg'otish orqali jamoaviy ruhiy birdamlikni shakllantirishga intilgan.

Shuningdek Bobur qarindoshlar bilan bo'lgan munosabatlarda diniy axloqiy qoidalar asosida amalga oshirgan. Ayniqsa, uning ammalari va bekalari



bilan uchrashuv jarayonini tasvirlar ekan Bobur shunday yozadi: “Avval Poyanda Sultonbegim bilan ta'zim qilib ko'rishdim. Undan so'ng Ofoqbegim bilan ta'zimsiz ko'rishdim. Keyin Xadichabegim bilan ta'zim qilib ko'rishdim” [Bobur Z.M., 2008:145]. Ushbu jumlada o'sha davrda shaxsga bo'lgan munosabat uning yoshi, ijtimoiy mavqeyi va qarindoshlik maqomiga qarab belgilanganini ko'rsatadi. “Ta'zim” odobi Sharq madaniyatida hurmat, ehtirom va ijtimoiy iyerarxiyani tan olish ramzi sifatida talqin qilinadi. Demak, Boburning ayrim bekalar bilan ta'zim qilib ko'rishishi ularning martaba yoki yosh jihatidan yuqori maqomga ega ekanini anglatadi. Aksincha, “ta'zimsiz” ko'rishish o'zaro yaqinlik, tenglik mavjudligini bildiradi. Bu jihat sotsiologik kommunikatsiya nazariyalari bilan hamohang bo'lib, E. Goffman ijtimoiy integratsiya nazariyasida shaxslar o'zaro munosabatda mavqe va ro'lga mos bo'lgan xulqni namoyon etishini qayd etadi [Goffman, 1967:15]. Pyer Burdyening fikricha, insonning muloqot qilish uslubi uning jamiyatda tutgan o'rni, bilimi va tarbiyasi hamda ota-bobolaridan meros qolgan an'analarga bog'liq. Boshqacha aytganda, bizning so'zlashuv uslubimiz va odob-axloqimiz shunchaki shaxsiy xususiyat emas, balki jamiyatdagi boy-kambag'al yoki past-baland tabaqalanishning ko'rinmas belgisidir. Insonning tili va muomalasiga qarab, uning ijtimoiy iyerarxiyaning qaysi pog'onasida ekanligini anglash mumkin. [Bourdieu, 1991:37]. Shu bois Boburning qarindoshlar bilan muloqotidagi ehtiyotkorlik, hurmat va vaziyatga mos kommunikativ xulqi uning shaxsiy axloqiy pozitsiyasi hamda davr ijtimoiy madaniyatining uyg'un ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Undan tashqari “Boburnoma”da suhbatdoshning sirini saqlash insonlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlovchi vosita sifatida Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro suhbatni quyidagicha tasvirlaydi: “Alisherbek maxfiy so'zlarni mirzoning qulog'iga ko'p gapirdi. Tag'in dediki: “Bu so'zlarni unuting”. Mirzo darhol aytdiki: “Qaysi so'zlarni?” [Bobur Z.M., 2008:85]. Mazkur lavhada Husayn Boyqaroning “Qaysi so'zlarni?” degan javobi shunchaki savol emas, balki suhbatdosh holatini hisobga olgan holda shu onning o'zida sirni saqlash ishorasi hisoblanadi. Siyosiy muhitda bunday diplomatik munosabatlar hukmdor va uning yaqin maslakdoshlari o'rtasidagi ishonchni mustahkamlab, ijtimoiy hamkorlikning samaradorligini oshiradi. Xuddi shuningdek, K.Aggestam va A.Towns (2019) zamonaviy diplomatiyaning asosi talablaridan biri sifatida o'zaro ishonch va maxfiylikni saqlash orqali yo'lga qo'yilgan, xalqaro hamkorlik davlatlar o'rtasidagi aloqalarning mustahkamligiga asos bo'ladi [Aggestam & Towns, 2019:52]. Yana bir tadqiqotda A.Holmes siyosiy liderlar o'rtasidagi norasmiy muloqot xalqaro nizolarni yumshatishda muhim rol o'ynashini qayd etadi [Holmes, 2020:73]. Xususan, Klifford Bob esa global siyosiy munosabatlarni tahlil qilar ekan, xalqaro siyosatda hamkorlik ko'pincha rasmiy doiradan tashqari norasmiy va maxfiy aloqalar orqali ham amalga oshishini, bu esa siyosiy barqarorligini ta'minlashda muhim ro'l o'ynashini ta'kidlaydi [Bob, 2012:29]. Shu jihatdan, Bobur davrida shakllangan diplomatik muloqot



tamoyillari zamonaviy xalqaro munosabatlar nazariyasi bilan ma'lum darajada mushtaraklik kasb etadi. Natijada bu holat muloqot madaniyatining tarixiy ildizlari bugungi global diplomatik munosabatlarda o'zini dolzarbligini saqlab qolayotganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Boburning ushbu shoh asari nafaqat tarixiy voqealar xronikasi, balki XV-XVI asrlar sharq muloqot madaniyatining muhim manbasi bo'lib xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Bobur muloqotni shunchaki axborot almashish vositasi emas, balki davlat barqarorligi, ijtimoiy adolat va shaxsiy axloqiy kamolotni belgilovchi strategik mexanizm sifatida talqin etadi. Uning Humoyun mirzoga yo'llagan o'gitlarida tilning soddaligi va aniqligiga urg'u berishi zamonaviy kommunikatsiya nazariyasidagi Grous maksimasi (uslub va miqdor tamoyillari) bilan to'la mos tushadi. Shuningdek, asarda kengash (shuro) orqali qaror qabul qilish jarayonlaridan shuni bilamizki, Bobur siyosiy qarorlarni atrofdagi insonlar bilan qabul qilgan ularning fikri bilan hisoblashgan. Shu o'rinda uning diplomatik uchrashuvlardagi “to'ru” (tartib) va “ta'zim” odobiga rioya qilishi, turli tabaqa vakillari bilan muloqotda ijtimoiy masofani saqlashi uning muloqot madaniyati sotsiologik iyerarxiya va etik me'yorlar bilan uzviy bog'liqligini ochib beradi. “Boburnoma”dagi ota va farzand o'rtasidagi fidoyilik yoki murshid va murid o'rtasidagi ehtirom, o'sha davrdagi voqeyiligining ijtimoiy ma'naviy ahamiyatini namoyon etadi.

Adabiyotlar:

1. Aggestam K., Towns A. Gendering Diplomacy and International Negotiation. – Palgrave Macmillan, 2019.
2. Aristotle. Nicomachean Ethics. – Oxford University Press, 2004.
3. Beveridge A.S. (trans.). The Babur-nama in English (Memoirs of Babur). – London: Luzac & Co., 1922.
4. Bob C. The Global Right Wing and the Clash of World Politics. – Cambridge University Press, 2012.
5. Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.
6. Cialdini R. Influence: The Psychology of Persuasion. – New York, 2001.
7. Dale S.F. The Garden of the Eight Paradises: Babur and the Culture of Empire in Central Asia, Afghanistan and India (1483–1530). – Leiden: Brill, 2004.
8. Dance F.E.X., Larson C.E. The Functions of Communication. – New York, 1976.
9. Grice H. P. Logic and Conversation. In: P. Cole & J. Morgan (eds.), Syntax and Semantics 3: Speech Acts, Academic Press, 1975.
10. Habermas J. The Theory of Communicative Action. – Boston: Beacon Press, 1984.



11. Holmes A. Face-to-Face Diplomacy: Social Neuroscience and International Relations. – Cambridge University Press, 2020.
12. Schimmel A. The Empire of the Great Mughals: History, Art and Culture. – London: Reaktion Books, 2004.
13. Бобур З.М. Бобирнома. — Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1960.